



# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 059,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **7,9 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **379,4** mlrd. so'mni (**3,9 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 680,1** mlrd. so'mni (**9,8 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1636,4** mlrd. so'mni (**12,6 %** ga oshdi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





## UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 059,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **7,9 %** ga oshdi.




Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **87,6 %** va yirik korxonalar hissasiga **12,4 %** to'g'ri keldi.



## ENG YUQORI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri **26,0 %** ulush bilan **796,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.



## ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,0 %** ulush bilan **31,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **2 680,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **9,8 %** ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **87,6 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,8 %), Zafarobod (98,3 %), Yangiobod (98,2 %), G'allaorol (97,5 %), Forish (97,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	3059523,1	107,9	379446,6	96,1	2680076,5	109,8
<b>Jizzax sh.</b>	796630,4	96,1	90563,0	49,3	706067,4	109,5
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	64375,8	110,1	744,0	136,2	63631,8	109,9
Baxmal	489379,7	136,4	251379,0	146,7	238000,6	127,0
G'allaorol	218130,0	106,4	5378,7	154,2	212751,3	105,6
Sharof Rashidov	460428,3	98,4	736,2	131,2	459692,0	98,3
Do'stlik	104003,1	119,2	3380,8	145,5	100622,3	118,5
Zomin	429199,3	107,1	14617,9	108,7	414581,4	107,1
Zarbdor	105256,2	123,4	2790,3	162,8	102465,9	122,6
Zafarobod	47516,1	103,5	806,7	148,9	46709,3	103,0
Mirzacho'l	76253,7	108,4	2242,8	134,7	74010,9	107,8
Paxtakor	134821,5	129,5	3721,2	28,5	131100,3	143,9
Forish	102164,5	108,7	2514,2	128,4	99650,3	108,3
Yangiobod	31364,6	110,8	571,8	131,3	30792,9	110,5

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 3,9 % ga kamaydi va **379,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,4 % ulushiga to'g'ri keladi.



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2 680,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 9,8 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,6 % ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,8 %), Zafarobod (98,3 %), Yangiobod (98,2 %), G'allaorol (97,5 %), Forish (97,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (11,4 %), Paxtakor (2,8 %), Baxmal (51,4 %), Zomin (3,4 %) va Do'stlik (3,3 %) tumanlarida kuzatildi.



**JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA  
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2021- yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 164,5 ming so'm (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan 5,8 % ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (4 401,3 ming so'm), Baxmal (3 066,3 ming so'm), Zomin (2 565,4 ming so'm) va Sharof Rashidov (2 029,2 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	2164,5	105,8
Jizzax sh.	4401,3	94,5
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	1381,5	108,5
Baxmal	3066,3	133,6
G'allaorol	1244,3	104,3
Sharof Rashidov	2029,2	95,9
Do'stlik	1559,3	117,0
Zomin	2565,4	104,9
Zarbdor	1190,7	120,3
Zafarobod	939,1	101,9
Mirzacho'l	1446,9	106,6
Paxtakor	1776,3	127,1
Forish	1088,0	107,1
Yangiobod	1096,7	108,9

**Asosiy tarkib, foizda**




Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **554,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **38,2 %** ga oshdi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **161,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **5,6 %** ga oshdi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **392,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **19,3 %** ga oshdi) .


**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-may oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **161,8** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **392,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT) ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	554,1	138,2	161,5	105,2	392,6	119,3
Jizzax sh.	86,9	136,2	66,9	96,3	0,0	86,9
tumanlar:	0,0		0,0		0,0	0,0
Arnasoy	18,9	123,9	3,6	104,1	14,2	118,9
Baxmal	99,7	179,6	11,9	220,9	107,6	99,7
G'allaorol	56,6	103,7	13,4	53,6	39,2	156,6
Sharof Rashidov	36,4	59,3	0,0	0,0	30,4	36,4
Do'stlik	27,7	163,0	9,6	71,9	22,1	27,7
Zomin	89,0	130,8	27,2	76,4	61,8	89,0
Zarbdor	37,6	157,4	4,8	84,7	36,7	37,6
Zafarobod	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Mirzacho'l	15,4	118,6	5,8	100,7	8,5	15,4
Paxtakor	51,6	302,3	7,5	99,0	48,1	51,6
Forish	24,0	119,7	9,7	98,9	14,2	24,0
Yangiobod	10,3	126,5	1,0	63,5	9,3	10,3

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



3,2 mlrd.  
so'm

Tuzlamalar



57,6  
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



4,4  
mlrd. so'm

Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

2760  
mlrd. so'm



Non va non  
mahsulotlari



6,9  
mlrd. so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

11,9  
mlrd. so'm



Tuxum

20,9  
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

5,9  
mlrd. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

1,2  
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2021- yilning yanvar-may oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **161,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**57,6** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

3,5  
mlrd. so'm



Ziravorlar

13,3  
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2021- yilning yanvar-may oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **392,6 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **275,5 mlrd. so'mni**, qo'y va echkilar **107,5 mlrd. so'mni**, otlar **8,0 mlrd. so'mni**, parrandalar **1,6 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2021- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,8 %** ni tashkil etib, **53,7 mlrd. so‘mga** yetdi va 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **2,2 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining  
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	53685,6	102,2	53685,6	102,2
Jizzax sh.	26249,1	102,1	26249,1	102,1
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	386,8	107,3	386,8	107,3
Baxmal	1020,8	107,1	1020,8	107,1
G‘allaorol	3299,9	107,5	3299,9	107,5
Sh. Rashidov	9514,5	107,5	9514,5	107,5
Do‘stlik	1834,0	107,5	1834,0	107,5
Zomin	3701,3	78,1	3701,3	78,1
Zarbdor	1664,5	107,5	1664,5	107,5
Zafarobod	487,3	107,3	487,3	107,3
Mirzacho‘l	2091,8	107,5	2091,8	107,5
Paxtakor	1750,2	107,5	1750,2	107,5
Forish	1355,5	107,4	1355,5	107,4
Yangiobod	329,9	107,3	329,9	107,3

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar




Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **767,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **5,3 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **153,1** mlrd. so'mni (**24,5 %** ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **614,1** mlrd. so'mni (**1,1 %** ga oshdi) tashkil etdi.



**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Jizzax shahar (**125,3 %**), Baxmal (**212,2 %**) va Forish (**142,4 %**) tumanlarida kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	767202,0	94,7	153069,0	75,5	614133,0	101,1
Jizzax sh.	444028,7	105,6	98480,3	125,3	345548,4	101,1
tumanlar:			0,0		0,0	
Arnasoy	1430,1	14,4	27,5	0,3	1402,6	101,1
Baxmal	67623,3	172,9	53648,0	212,2	13975,4	101,1
G'allaorol	19966,9	98,5	111,6	17,5	19855,3	101,1
Sh. Rashidov	48970,4	82,0	43,2	0,4	48927,2	101,1
Do'stlik	33451,9	74,5	107,7	0,9	33344,2	101,1
Zomin	80201,9	95,2	17,3	0,4	80184,6	101,1
Zarbdor	10327,8	32,3	10,2	0,0	10317,6	101,1
Zafarobod	5672,2	29,5	137,7	1,0	5534,4	101,1
Mirzacho'l	2034,5	13,7	45,6	0,4	1988,9	101,1
Paxtakor	7531,7	37,3	170,5	1,3	7361,2	101,1
Forish	42013,5	101,3	237,0	142,4	41776,5	101,1
Yangiobod	3949,0	99,5	32,3	34,7	3916,8	101,1

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **614,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **1,1** % ga oshdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **80,0** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**100,0** %), Yangiobod (**99,2** %), G'allaorol (**99,4** %), Forish (**99,4** %), Sharof Rashidov (**99,9** %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Baxmal (**20,7** %), Mirzacho'l (**97,8** %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:72-221-51-26